



## ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> October 2021

Accepted: 10<sup>th</sup> October 2021

Online: 15<sup>th</sup> October 2021

## KEY WORDS

*UzTrade, DABS, Termiz-Kargo, temiryo'l, Termiz o'quv markazi, Inson huquqlari, baynalmilal hamkorlik*

## O'ZBEKISTON – AFG'ONISTON HAMKORLIGINING ASOSIY YO'NALISHLARI

**Sanjarbek Saidmurod o'g'li Shoyimov**

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5578575>

## ABSTRACT

*Ushbu maqola hozirgi zamonaviy davrdagi, aniqrog'i, yaqin 3-4 yil davomida o'zbek-afg'on hukumatlari o'rtasida har tomonlama hamkorlik munosabatlarining sezilarli darajada o'sganligi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, bu maqola hamkorlikdan har ikki tomonning maqsad va muddaolari va hamkorlik istiqbollari tomonlarini ham yoritadi.*

“Biz endi Afg'onistonga uning hududidan tinchlik va barqarorlikka tahdid solmaydigan davlat sifatida qaray boshlashimiz kerak. Afg'oniston – bizning do'stona hamkorimiz va qo'shnimizdir”,<sup>1</sup> deb ta'kidlagan edilar, Toshkentdagi konferensiyada, muhtaram prezidentimiz, Sh.Mirziyoyev. Haqiqatdan ham aytish kerakki, zamonaviy davrda ikkala mamlakat o'rtasidagi aloqalar yangi pog'onaga ko'tarildi. Shuningdek, O'zbekiston o'z qo'shnisi bo'lgan Afg'onistonga endilikda, “ notinch o'lka ” sifatida emas, balki do'stona hamkor hamda yaqin qo'shni sifatida qaraydigan bo'ldi. Bu jihatdan, olib aytish joizki, mamlakatlar o'rtasida hamkorlikning yangi sahifasi

2017- yil dekabr oyida Afg'on hukumati rahbari Ashraf G'anining yurtimizga tashrifi natijasida ochildi.

Bugungi kunda O'zbekiston hamda Afg'oniston hukumatlari o'zaro bir nechta sohalarda hamkorlik qiladi. Bu sohalardagi hamkorlik o'z navbatida har ikki tomonning milliy manfaatlarini ham ifodalaydi.

Savdo-iqtisodiy sohada hamkorlik, O'zbekiston hamda Afg'oniston o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik 2017-yilgacha yaxshi yo'lga qo'yilmagandi. O'zbekistonning Afg'onistonga yondashishining asosiy tamoyili bu iqtisodiyotidir. Darhaqiqat, so'nggi 3-4 yil ichida o'zaro tovar ayirboshlash sezilarli

<sup>1</sup> 1.1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Afg'oniston bo'yicha “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusidagi xalqaro

konferensiyadagi nutqi.  
<https://president.uz/uz/lists/view/1601>



darajada kengaydi. Ashraf G'ani tashrifi natijasida 40 ta tijorat shartnomalari imzolandi. Ularga ko'ra, O'zbekiston Afg'onistonga 500 mln \$ lik mahsulot sotadi. Kobulda savdo uyimiz - UzTrade ochildi, Mozori - Sharifda ko'rgazma zali tashkil etilgan. Ushbu sa'y-harakatlar tufayli o'zaro savdo hajmi 2018-yilda 600,7 mln dollarni tashkil etdi va undan 99%i O'zbekiston hissasiga to'g'ri keladi. Bu Afg'onistonni O'zbekistonning eng kuchli sakkizta savdo sherigiga aylantirdi. Bu savdo hajmini 1,5 mlrd dollarga yetkazish bo'yicha aniq rejalar mavjud. O'zbekiston Afg'onistonni qurilish materiallari, qishloq xo'jalik mahsulotlari, bug'doy, dori-darmonlar, maishiy texnika, transport vositalari va boshqa tovarlar bilan ta'minlamoqda. O'zbekistonda afg'on biznesmenlari ishtirokida 122 ta korxonalar ishlaydi, ularning 39 tasi 100 foiz chet el kapitali asosida tashkil qilingan.<sup>2</sup>

Energetika sohasida hamkorlik, bu soha ham hamkorlikdagi eng istiqbolli yo'nalish bo'lib, O'zbekiston Afg'onistonga 2002 - yildan boshlab elektr-energiyasini yetkazib berib kelmoqda. 2018-yilga kelib, Afg'onistonga yetkazib beriladigan elektr energiyasi narxini 35%ga pasaytirdi. 7,6 sentdan 1 kilovatt uchun 5 sentgacha. Shuningdek, 2017-yil davlat tashrifi chog'ida, O'zbekistonning "O'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyati bilan Afg'onistonning "Da Afganistan Breshna Sherkat "DABS" o'rtasida "SURXON-PULI-XUMRI" quvvati 500 kvt bo'lgan elektr uzatish liniyasini qurish bo'yicha hamkorlik qilish to'g'risida bitim imzolandi. Loyihaning taxminiy qiymati 150 mln dollarni tashkil etadi, shundan 32 mlnini O'zbekiston tomon

o'ziga oladi. Loyiha o'zini qoplash muddati 12 yilni tashkil qiladi. Qurilish ishlarini o'zbek tomon olib boradigan bo'ldi (3 yil muddatda). Ushbu loyihaning afzal tomonlari ko'p bo'lib, O'zbekiston Afg'onistonga energetika sohasi bo'yicha asosiy donorga aylantirib, yiliga 70%gacha - 6 mlrd kvt soatgacha energiya yetkazib berishi mumkin. Loyiha natijasida Afg'onistondagi ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatini ham ochib beradi. Bundan tashqari loyiha 2012- yilda boshlangan CASA-1000 loyihasining ajralmas qismiga aylanishi mumkin. Eng asosiysi shuki, loyiha O'zbekiston hukumati uchun ko'p foyda keltiradi. Uning Afg'onistondagi strategik maqsadlari uchun juda mos bo'lib, "Termiz-Mozori-Sharif-Hirot" temiryo'li qurilishi natijasida O'zbekiston dunyo okeaniga chiqish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Bu loyihalarni amalga oshirish uchun ham elektr-energiya liniyasi qurilishi zarurdir. Bugungi kungacha ham Afg'oniston uchun O'zbekiston asosiy energetik sherik bo'lib qolmoqda.<sup>3</sup>

Transport sohasida hamkorlik. O'zbekiston uchun Afg'oniston bilan hamkorlik qilishining eng strategik sohasi bu - transport yo'nalishi hisoblanadi. Bu jihatdan O'zbekiston manfaatlari juda istiqbolli hisoblanadi. 2017-yil dekabrda O'zbekistonning transport infratuzilmasini takomillashtirish hamda chet el savdo yo'llari yuklarini diversifikatsiya qilish bo'yicha besh yillik kompleks dastur qabul qilindi. Daturga ko'ra, bir nechta transport koridorlarini qurish bo'yicha erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, shu jumladan

<sup>2</sup> O'zbekiston elchisi Javlon Vahobovning intervyusidan (Caspianpolicy) olindi.

<sup>3</sup> [www.caspianpolicy.org/special-interview-with-uzbekistan-ambassador-javlon-vahobov](http://www.caspianpolicy.org/special-interview-with-uzbekistan-ambassador-javlon-vahobov)



, O'zbekiston-Turkmaniston-Eron-Ummon, O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy va trans Afg'oniston yo'li orqali Eron (Bandar Abbas va Chabahar) va Pokiston (Gvadar va Karachi)dengiz portlariga kirish imkoni mavjud bo'ladi. 2017- yil tashrif natijalariga ko'ra, o'zbek maxsus temiryo'l kompaniyasi tomonidan qurilgan Xayraton-Mozori-Sharif temiryo'l liniyasining davomi sifatida Termiz – Mozori-Sharif-Hirot temiryo'lini qurish to'g'risida kelishib olindi. Ushbu loyiha Afg'oniston tashqi savdo aylanmasi 50% o'sishiga o'z hissasini qo'shadi. Bu loyihaning yutuq tomonlari juda ko'p bo'lib, Asian Development Bank hisob-kitobiga ko'ra, loyiha natijasida 1000 dan ortiq odam ish bilan ta'minlanib, loyiha hududida bandlik 10-11% gacha o'sish kuzatildi hamda 1200 ga yaqin mahalliy aholi logistika ishlarida ish bilan ta'minlandi. Bundan tashqari bu trans koridor loyihalar natijasida Kobul tovar aylanmasi o'sishidan o'z daromad manbalarini shakllantirish tufayli tashqi yordamga bora-bora muhtojligi qolmaydi. Bu rejalar Afg'onistondagi tinchlik uchun mintaqadagi qo'shni mamlakatlarni ham konsensusga kelish undaydi Ikki mamlakat o'rtasida ekport-import va tranzit yuk oqimlarini yengillashtirish maqsadida Termiz bo'xona terminalida "Termiz-Kargo" xalqaro logistika markazi tashkil etildi. Hozirda terminal bir vaqtning o'zida 300 tagacha yuk mashinasini qabul qilish quvvatiga ega. Xullas, ikkala mamlakat uchun transport yo'lini qurish va uning bir maromda ishlashini ta'minlash muhim strategiya hisoblanadi.4

Neft-gaz va neft gaz mahsulotlari sohasida hamkorlik, bu sohada hamkorlik ishlari dastlabki davrda yaxshi yo'lga qo'yilmagan bo'lsa-da, so'nggi yillar ichida neft-gaz sohasida hamkorlik rivojlandi. Sababi, Afg'oniston neft va gazga juda boy bo'lsa-da, hududdagi notinchlik sabab , bu yerda neft va gazni qayta ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zavod va fabrikalar yo'qligi hamda hududdagi urush sabab chet el investorlar loyihalarining amalga oshmay qolganligi natijasida neft-gaz mahsulotlarini O'zbekistondan import qilishga majbur bo'ladi. "O'zbekneftgaz" AJ Boshqaruvi Raisi Mehriddin Abdullayevning topshirig'i asosida Termiz tumanida joylashgan "Termiz Kargo" logistika markazi hududida "O'zbekneftgaz" Ajning doimiy faoliyat yurituvchi savdo uyi tashkil etildi. "O'zbekneftgaz" AJ Tijorat departamentining ma'lumotga ko'ra, amalga oshirilgan ishlar natijasida 2021 yilning yanvar-may oylarida umumiy qiymati 9 mln dollar miqdoridagi(o'tgan yil ko'rsatkichiga nisbatan 1,8 marta ko'proq) korxonalarda ishlab chiqarilayotgan oltingugurt, suyultirilgan gaz, turli markadagi polimer mahsulotlari, neft mahsulotlari Afg'oniston Islom Respublikasiga eksport qilindi.Yil yakuniga qadar , bu ko'rsatkichni 20 mln dollarga oshirib borish rejalashtirilgan.5

Ta'lim sohasidagi hamkorlik, bu yo'nalish har ikkala mamlakat hamkorligi hamda istiqboli uchun manfaatli bo'lib, malakali kadrlar yetishtirishga qaratilgan. Afg'onistonda bugungi kunda kadrlarga ehtiyoj yuqori bo'lib, u yerda nafaqat Oliy

<sup>4</sup> . review.uz/post/ozbekiston-afgoniston-iqtisodiyotini-tiklash-va-rivojlantirishga-afgon-

xalqining-turmushini-yaxshilashga-katta-hissa-qoshmoqda



ta'lim , balki, maktab ta'limi ham yaxshi yo'lga qo'yilmagan.Boisi,

Afg'onistondagi diniy-siyosiy vaziyat xavfi ostida buning imkoni yo'q. Shu sababli qonuniy afg'on hukumati O'zbekistonda afg'on yoshlarini o'qitishga harakat hamda hamkorlik qiladi. 2020-yilning 20-noyabr kuni Afg'oniston hukumati delegatsiyasining Toshkent tashrifi chog'ida Afg'oniston Oliy ta'lim vazirligi va O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rtasida afg'on talabalarini O'zbekistonga ta'lim olish uchun yuborish to'g'risida o'zaro anglashuv memorandumini imzolash marosimi bo'lib o'tdi. Shu sababdan, Surxondaryo viloyati Termiz tumanida Afg'oniston fuqarolarini o'qitish markazi faoliyat yuritmoqda. 2018-2019-o'quv yili davomida 96 nafar talaba Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining bakalavri darajasiga ega bo'ldi.<sup>6</sup> Shuningdek 2019-yili Yevropa Ittifoqi tomonidan afg'on ayollarini Markaziy Osiyo universitetlarida o'qitish uchun 2 mln yevro miqdorida grant ajratdi. Hozirgi kunda afg'on yoshlarining aksariyati Termiz davlat universitetida tahsil olmoqda.

Inson huquqlari hamda baynalmilal sohadagi hamkorlik ham juda dolzarb va muhim. Sababi shuki, shunday bir turli millatli mamlakatda ayollar va bolalar huquqlari kafolatlanmaganligi hamda erkaklar huquqlari har tomonlama ustun qo'yilganligi(oz bo'lsa-da liberal holat mavjud yo mavjud emasligi davriga qarab)butundunyo inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlarni qiyin ahvolga solmasdan qo'ymaydi, albatta. Ammo, bu

mamlakatdagi eng asosiy to'siq turli millat va guruhlar o'rtasidagi siyosiy va harbiy tortishuvlardir. Har yili shu fojea munosabati bilan qanchalab begunoh ayol ,go'dak va qariyalar vafot etadi. Shuningdek , afg'on ayollarning gender tengsizligi kafolatlanmagan.

2021-yilning 14-sentabr kuni Afg'onistonning Hayraton shahrida Afg'oniston xalqiga insonparvarlik yordami topshirilishiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. Bu haqda Tashqi ishlar matbuot

xizmati [xabar](#) berdi. Ma'lumotlarga ko'ra, mazkur insonparvarlik yordami – un, turli oziq-ovqat mahsulotlari, birlamchi zarur tovarlar, dori-darmonlar, kiyim-kechak va poyafzallardan iborat bo'lib, bu o'zbek xalqining birodar Afg'onistonga ko'rsatayotgan xayrixohligining yana bir ifodasiga aylangan. Marosimda so'zga chiqqan Afg'oniston muvaqqat hukumati rasmiy vakili Zabihulla Mujohid butun afg'on xalqi nomidan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga bugungi sinovli davrda mamlakatga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibori, qo'llab-quvvatlashi va birdamligi uchun chuqur minnatdorlik bildirgan.Alohida qayd etilganidek, Afg'oniston xalqiga ko'mak ko'rsatish chaqiruviga O'zbekiston rahbari birinchilardan bo'lib e'tibor qaratgani, uning siyosatini ko'p millatli Afg'oniston xalqi chinakam insonparvarlik, birodarlik va yaxshi qo'shnicilikning namoyon bo'lishi sifatida baholagan. Tadbirda so'zga chiqqan Balx viloyati gubernatori Qudratillo Abu Hamza insonparvarlik yordami o'z vaqtida berilibgina qolmay, balki alohida

<sup>6</sup> [amp/s/daryo.uz/amp/2020/11/23/afgoniston-talabalar-ozbekistonda-talim-olish-uchun-yuboriladi/](http://amp/s/daryo.uz/amp/2020/11/23/afgoniston-talabalar-ozbekistonda-talim-olish-uchun-yuboriladi/)



ehtiyoj ekanligini, bu esa xalqlarimiz o'rtasida asrlar osha davom etib kelayotgan tarixiy, madaniy va ma'naviy aloqalarning yana bir isboti ekanligini ta'kidladi. Uning so'zlariga ko'ra, bu yordam aslida Afg'onistonga pandemiya oqibatlarini bartaraf etishga, shuningdek, mamlakatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan gumanitar va oziq-ovqat inqirozining oldini olishga xizmat qiladi.<sup>7</sup>

O'zbekistonning Afg'onistondagi elchisi Yodgorxo'ja Shodmonov boshchiligidagi delegasiya bugun, 2 oktyabr kuni Kobulda "Tolibon" tashqi ishlar vaziri v.b. Amirxon Muttaqiy bilan uchrashdi. "Tolibon" siyosiy ofisi rasmiysi Twitter'da bergan ma'lumotga kura uchrashuvda ikki tomonlama munosabatlar, xususan, Mozori Sharif va Qobul aeroportlarini rekonstruksiya qilish masalalari muhokama qilingan. Shuningdek, ikki davlat o'rtasida aviaqatnovlarni tiklash masalasida ham ijobiy suhbat bo'lgani qayd etilgan. Amirxon Muttaqiy O'zbekistonga ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va mustahkamlash umidini bergani uchun minnatdorchilik bildirgan. O'zbekiston tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov boshchiligidagi delegasiya 7 oktyabr kuni Afg'oniston Islom Amirligi Tashqi ishlar vaziri v.b. Mavlaviy Amir Xon Muttaqiy bilan uchrashuv o'tkazdi. Bu haqda Tolibon Tashqi ishlar vazirligi rasmiy vakili Abdul Qahhor Balxiy twitterda malumot beradi. E'lon qilingan suratlarda Abdulaziz Komilovga prezidentning Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili Ismatulla Ergashev va boshqa delegasiya vakillari hamrohlik qilganini ko'rish mumkin. Ijimoiy tarmoq

manbalariga ko'ra, uchrashuv Afg'oniston poytaxti Kobulda bo'lib o'tgan. Amir Xon Muttaqiy mamlakatdagi vaziyat o'z iziga tushayotganini aytib o'tgan, shuningdek, O'zbekistonning Afg'onistonga nisbatan tashqi siyosati boshqa omillarga bog'liq emasligiga ishonch bildirgan. Abdulaziz Komilov Afg'oniston Islom Amirligi tez kunlarda xalqaro hamjamiyatda o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lishi va O'zbekiston savdo, tranzit va energetika sohasida o'z zimmasiga olgan majburiyatlariga sodiq qolishini ta'kidladi. «Tolibon» rasmiysi Mozori Sharif aeroporti rekonstruksiyasi va boshqa yordamlar uchun O'zbekiston tarafiga minnatdorchilik izhor etgan. O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi hozircha bu uchrashuv yuzasidan rasmiy ma'lumot bermadi.

Joriy yilning 2 oktyabr kuni O'zbekistonning Afg'onistondagi elchisi Yodgorxo'ja Shodmonov boshchiligidagi delegasiya ham Kobulda «Tolibon» tashqi ishlar vaziri v.b. Amirxon Muttaqiy bilan uchrashgan edi. Uchrashuvda ikki tomonlama munosabatlar, xususan, Mozori Sharif va Qobul aeroportlarini rekonstruksiya qilish va ikki davlat o'rtasida aviaqatnovlarni tiklash masalasi ko'rilgan. 7 oktyabr kuni O'zbekiston Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov boshchiligidagi delegasiya Afg'oniston muvaqqat hukumat rahbarining siyosiy masalalar bo'yicha o'rinbosari Mulla Abdul Kabir boshchiligidagi Afg'oniston rahbariyati vakillari bilan muzokaralar o'tkazdi. Uchrashuvda Afg'oniston bosh vazirining iqtisodiy masalalar bo'yicha o'rinbosari A.Hanafiy, transport va fuqaro aviasiyasi, umumiy ishlar, energetika va suv

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati " O'ZBEKISTONNING AFG'ONISTONGA BAYNALMILAL YORDAMI"



resurslari vazirlari ham ishtirok etdi. Tashqi ishlar vaziri vazifasini bajaruvchi Mavlaviy Amir Xon Muttaqiy bilan alohida muzokaralar olib borildi. Tomonlar mamlakatdagi mavjud vaziyat, Afg'oniston xalqiga gumanitar va boshqa turdagi yordam ko'rsatish bo'yicha sa'y-harakatlar, shuningdek, mamlakatda energetika va transport sohalarida yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish masalalarini muhokama qildi. Afg'oniston muvaqqat hukumati a'zolari O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevga afg'on xalqining orzu-intilishlariga qaratayotgan ulkan e'tibori, oziq-ovqat inqirozining oldini olishda ko'rsatgan yordami uchun samimiy minnatdorlik bildirdi. Afg'oniston tomoni O'zbekiston prezidentining Afg'oniston yangi hokimiyati bilan konstruktiv va o'zaro maqbul muloqot o'rnatishga qaratilgan siyosatini, shuningdek, xalqaro hamjamiyatga Afg'onistonning xorijdagi muzlatilgan aktivlariga nisbatan qo'yilgan cheklovni olib tashlash chorlovini yuqori baholadi. Afg'oniston delegatsiyasi a'zolari O'zbekiston hukumatiga Mozori Sharif xalqaro aeroporti faoliyatini tiklash, O'zbekiston - Afg'oniston chegarasining uzluksiz ishlashi, u orqali mamlakatga doimiy ravishda oziq-ovqat va boshqa turdagi birlamchi tovarlar yetkazib berishdagi ko'rsatilayotgan yordam uchun chuqur minnatdorlik bildirdi. Tomonlar yaqin orada Termiz shahrida savdo-iqtisodiy masalalarini, jumladan, «Surxon - Puli-Humri» elektr uzatish tarmoqlari va

«Mozori Sharif - Kobul - Peshovar» yo'nalishi bo'ylab temir yo'l qurish loyihalarini amalga oshirish masalalarini muhokama qilish uchun qo'shma muzokaralar o'tkazish to'g'risida kelishib oldi. «Afg'oniston tomoni ushbu loyihalarni amalga oshirishga jalb qilingan o'zbekistonlik mutaxassislarining xavfsizligini ta'minlashga tayyorligini ma'lum qildi. Birodar O'zbekiston xavfsizligiga Afg'oniston hududidan hech qanday tahdid bo'lmasligi rasmiy Kobul tomonidan qat'iy bildirildi», deyiladi TIV matbuot xizmati xabarida.<sup>8</sup>

Xulosa qiladigan bo'lsak, Mustaqillik yillarida O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasida turli sohalarda hamkorlik ishlari olib borildi, biroq bu hamkorlik kam natija berayotgandi. 2017-yilga kelib esa mamlakatlar o'rtasida hamkorlikning yangi sahifasi ochildi. Natijada o'tgan 25 yillik turg'un hamkorlikdan oz davr ichida asosiy hamkorlar darajasiga chiqdi. Biroq Afg'onistondagi notinch vaziyat hamkorlikning to'raligicha amalga oshishiga g'ov bo'lib qolmoqda. O'zbekiston rahbariyati afg'on xalqi tinch yashashi uchun turli xalqaro davralarda o'z tinchlik tashabbuslari hamda baynalmilal yordami bilan beminnat yordam ko'rsatib kelmoqda. Hamkorlikning istiqbollari mavjud. Har qanday vaziyatda ham O'zbekiston Respublikasi Afg'oniston uchun eng yaqin va qulay hamkor hisoblanadi.

<sup>8</sup> O'z Res TIV Matbuot Xizmati



## References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Afg'oniston bo'yicha "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusidagi xalqaro konferentsiyadagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/1601>
2. O'z Res TIV Matbuot Xizmati 2-oktabr 2021 yi
3. <https://www.caspianpolicy.org/special-interview-with-uzbekistan-ambassador-javlon-vakhabov/>
4. [Latn/articles/cnmi\\_ca/features/2017/12/13/feature-03](http://Latn/articles/cnmi_ca/features/2017/12/13/feature-03)
5. <https://kun.uz/47191891>
6. <https://www.google.com/amp/s/daryo.uz/amp/2020/11/23/afgoniston-talabalari-ozbekistonda-talim-olish-uchun-yuboriladi/>
7. <https://unrcca.unmissions.org/ru/>
8. [review.uz/uz/post/ozbekiston-afgoniston-iqtisodiyotini-tiklash-va-rivojlantirishga-afgon-xalqining-turmushini-yaxshilashga-katta-hissa-qoshmoqda](http://review.uz/uz/post/ozbekiston-afgoniston-iqtisodiyotini-tiklash-va-rivojlantirishga-afgon-xalqining-turmushini-yaxshilashga-katta-hissa-qoshmoqda)
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati " O'ZBEKISTONNING AFG'ONISTONGA BAYNALMILAL YORDAMI" 14-sentabr 2021 yil.